

**“MILLIY ONLAYN NASHRLARDA JURNALISTIK SURISHTIRUV
JARAYONIDA JURNALIST HUQUQLARINING BUZILISH SHAKLLARI:
KUN.UZ VA DARYO.UZ MISOLIDA”**

Malika Jahonova

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

2-bosqich magistranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada milliy onlayn nashrlarda jurnalistik surishtiruv jarayonida jurnalist huquqlarining buzilish shakllari tahlil qilinadi. Tadqiqotda 2024–2025-yillarda “Kun.uz” va “Daryo.uz” internet nashrlarida e’lon qilingan materiallar kontent-tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil hamda keys-stadi metodlari asosida o’rganildi. Natijada jurnalistlarning axborot olish huquqiga to’sqinlik qilish, kasbiy faoliyatiga aralashish, tahdid va bosim o’tkazish hamda texnik vositalardan foydalanishni cheklash holatlari aniqlangan. Tadqiqotda mazkur muammolarning huquqiy asoslari tahlil qilinib, jurnalistlarning huquqiy himoyasini kuchaytirishga doir takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *jurnalistik surishtiruv, huquqiy himoya, media erkinligi, onlayn nashrlar, axborot olish huquqi, jurnalist xavfsizligi.*

Аннотация. *В данной статье анализируются формы нарушения прав журналистов в процессе журналистских расследований в национальных онлайн-изданиях. В исследовании материалы, опубликованные в интернет-изданиях «Kun.uz» и «Daryo.uz» в 2024–2025 годах, были изучены с использованием методов контент-анализа, сравнительно-правового анализа и кейс-стади. В результате выявлены случаи ограничения права журналистов на получение информации, вмешательства в профессиональную деятельность, угроз и давления, а также ограничения использования технических средств. Проанализированы правовые основы данных проблем и разработаны предложения по усилению правовой защиты журналистов.*

Ключевые слова: *журналистское расследование, правовая защита, свобода СМИ, онлайн-издания, право на получение информации, безопасность журналистов.*

Abstract. *This article analyzes the forms of violations of journalists’ rights during investigative reporting in national online media. The study examines materials published in Kun.uz and Daryo.uz during 2024–2025 using content analysis, comparative legal analysis, and case study methods. The findings reveal cases of restricted access to information, interference in professional activities, threats and pressure against journalists, and limitations on the use of technical equipment. The legal foundations of these issues are*

analyzed, and recommendations for strengthening the legal protection of journalists are proposed.

Keywords: *investigative journalism, legal protection, media freedom, online media, right to information, journalist safety.*

KIRISH. Surishtiruv janrida jurnalistning huquqiy maqomi muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega kategoriyalardan biri hisoblanadi. Chunki surishtiruv jarayoni odatda ijtimoiy ahamiyatga molik muammolarni ochib berishga qaratilgan bo‘lib, u davlat organlari, mansabdor shaxslar hamda turli institutlar faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarni qamrab oladi. Shu jihatdan jurnalist faoliyati huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘lib, uning huquqiy maqomini aniqlash surishtiruv samaradorligini ta‘minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Jurnalistning huquqiy maqomi — bu uning ommaviy axborot vositalari tizimidagi faoliyatini amalga oshirish jarayonida qonunchilik bilan belgilangan huquqlari, majburiyatlari, kafolatlari majmuidir.

Jurnalistning huquqiy maqomi uning kasbiy faoliyatini tartibga soluvchi huquq va majburiyatlar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu maqom jurnalistning axborotni izlash, olish va tarqatish bilan bog‘liq huquq va erkinliklarini belgilash bilan birga, haqqoniylik, xolislik hamda aniqlik tamoyillariga rioya etish kabi kasbiy majburiyatlarni ham o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, jurnalist faoliyati amaldagi qonunchilik asosida himoya qilinib, uning kasbiy mustaqilligi va xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan huquqiy kafolatlar bilan mustahkamlanadi.

“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”, “O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi, “Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun hujjatlarida so‘z va matbuot erkinligini ta‘minlovchi muhim me‘yorlar o‘z aksini topgan. Ular mamlakatda ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyat yuritishini ta‘minlovchi asosiy hujjatlar hisoblanadi¹⁶. Jurnalistning huquqi nafaqat milliy qonunchilik, balki xalqaro huquq normalari bilan ham mustahkamlangan. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 19-moddasida har kimning fikr erkinligi hamda axborotni izlash, olish va tarqatish huquqi kafolatlangan. Mazkur norma jurnalist faoliyatining asosiy huquqiy poydevorini tashkil etib, uning axborot bilan erkin ishlash imkoniyatini belgilaydi.

¹⁶ Qurbon N., Bahriyev K. Media huquqi. Darslik. – T.: Grand Inter Media”, 2022. – B.146.

Shuningdek, “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi Xalqaro paktning 19-moddasida ham axborot erkinligi kafolatlangan. Bu esa jurnalistlarning axborot olish va uni jamoatchilikka yetkazish jarayonida xalqaro huquqiy himoyalarga ega ekanini anglatadi.

Bundan tashqari, jurnalistlar faoliyatining xavfsizligini ta‘minlash masalasi xalqaro darajada YUNESKO doirasida ham alohida e‘tirof etilgan. Xususan, YUNESKOning “Jurnalistlar xavfsizligi va jazosizlikka barham berish bo‘yicha BMT Harakatlar rejasi” (UN Plan of Action on the Safety of Journalists and the Issue of Impunity, 2012)da jurnalistlarga nisbatan zo‘ravonlik, tahdid va bosim holatlarining oldini olish hamda ularni samarali himoya qilish davlatlarning muhim majburiyati sifatida belgilangan. Mazkur hujjatda jurnalistlarning xavfsiz faoliyat yuritishi so‘z erkinligini ta‘minlashning ajralmas sharti sifatida talqin etiladi.

Shu nuqtai nazardan, xalqaro huquqiy normalar jurnalistning huquqiy maqomini belgilashda nafaqat uning axborot olish va tarqatish erkinligini e‘tirof etadi, balki ushbu huquqlarni amaliyotda ta‘minlash bo‘yicha davlatlarga aniq majburiyatlar yuklaydi. Bu esa jurnalist faoliyatining himoyasi milliy darajadagi huquqiy kafolatlar bilan cheklanib qolmasdan, global miqyosda ham ustuvor huquqiy tamoyil sifatida qaralayotganini ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mazkur tadqiqotda milliy onlayn nashrlarda jurnalistik surishtiruv jarayonida jurnalist huquqlarining buzilish shakllarini aniqlash va ularning huquqiy asoslarini tahlil qilish maqsadida kontent-tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil hamda keys-stadi metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida 2024–2025-yillarda “Kun.uz” va “Daryo.uz” internet nashrlarida e‘lon qilingan jurnalistik surishtiruv materiallari tanlab olindi. Materiallarni saralashda jurnalistlarning axborot olish huquqi, kasbiy faoliyatiga aralashuv, tahdid va bosim holatlari bilan bog‘liq publikatsiyalar asosiy mezon sifatida belgilandi. Tadqiqot jarayonida aniqlangan holatlar O‘zbekiston Respublikasining ommaviy axborot vositalari va jurnalistlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlari hamda jurnalistlar huquqlariga oid xalqaro huquqiy standartlar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, milliy amaliyotda uchrayotgan muammolar xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari va jurnalistlar xavfsizligiga oid zamonaviy tadqiqotlar bilan qiyosiy o‘rganildi. Mazkur yondashuv jurnalistik surishtiruv jarayonida jurnalist huquqlarining buzilishiga sabab bo‘layotgan omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga doir ilmiy xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi.

TADQIQOT NATIJALARI VA TAHLILI. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko‘ra, jurnalist — axborotni izlash, olish, tekshirish va tarqatish bilan shug‘ullanuvchi shaxs sifatida e‘tirof etiladi. Xususan, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi hamda “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlarda jurnalistning huquq va majburiyatlari belgilab berilgan bo‘lib, ular jurnalist faoliyatining

huquqiy asosini tashkil etadi. Mazkur norma jurnalist faoliyatining erkinligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, uning kasbiy faoliyatiga tashqi aralashuvni cheklaydi. Bu esa jurnalistning axborotni mustaqil ravishda izlash va yoritish imkoniyatini kafolatlaydi.

Shu bilan birga, milliy qonunchiligimizda jurnalist faoliyatining erkinligini ta’minlash bilan cheklanib qolmasdan, uning shaxsiy daxlsizligini himoya qilish masalasi ham alohida tartibga solingan. Xususan, “Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 8-moddasida jurnalistning daxlsizligi kafolatlanib, tanqidiy materiallar e‘lon qilganligi uchun uni ta‘qib qilishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilab qo‘yilgan. Demak, ommaviy axborot vositalari erkinligi qonunchilik darajasida mustahkamlangan bo‘lsa-da, ushbu erkinlikning samarali amal qilishi jurnalistning daxlsizligi va uning kasbiy faoliyatiga noqonuniy aralashuvlardan himoyalaniishi bilan bevosita ta’minlanadi.

Shuningdek, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasida¹⁷: “O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari erkindir. Har kim, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ommaviy axborot vositalarida chiqish, o‘z fikri va e‘tiqodini oshkora bayon etish huquqiga egadir. Davlat ommaviy axborot vositalarining faoliyati va axborotdan foydalanish erkinligini, mulk huquqini, davlat organlarining g‘ayriqonuniy qarorlaridan, ular mansabdor shaxslarining g‘ayriqonuniy harakatlaridan (harakatsizligidan) himoya qilinishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish taqiqlanadi. Ommaviy axborot vositalari qonun hujjatlariga muvofiq axborotni izlash, olish, tadqiq etish, tarqatish, undan foydalanish, uni saqlash huquqiga ega hamda tarqatilyotgan axborotning xolisligi va ishonchligi uchun belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi”- deb belgilangan.

“Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasiga ko‘ra¹⁸, O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarining senzura qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi hamda jurnalistning materiallarini oldindan kelishish, o‘zgartirish yoki nashrdan olib tashlashni talab qilish taqiqlanadi.

Mazkur Qonunning 5-moddasida jurnalistning asosiy kasbiy huquqlari belgilangan bo‘lib, ular axborotni izlash, olish, tahlil qilish va tarqatish, jurnalistik surishtiruv o‘tkazish, davlat organlari va tashkilotlardan ma‘lumot so‘rash, ochiq majlis va tadbirlarda ishtirok etish, texnik vositalardan foydalanish, axborot manbai sir saqlanishini talab qilish hamda kasbiy faoliyatini erkin amalga oshirish kabi vakolatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu huquqlar jurnalistning axborot bilan ishlash jarayonidagi mustaqilligi va daxlsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

¹⁷ <https://www.lex.uz/uz/docs/-53543#-1109698>

¹⁸ <https://lex.uz/docs/-9540>

Surishtiruv jurnalistikasi amaliyotida jurnalistning huquqiy maqomi, avvalo, axborot olish jarayonida namoyon bo‘ladi. Nazariy jihatdan jurnalist davlat organlari va boshqa tashkilotlardan ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ma‘lumotlarni talab qilish huquqiga ega bo‘lsa-da, amaliy faoliyatda mazkur huquqning to‘liq ro‘yobga chiqishi har doim ham ta‘minlanavermaydi. Xususan, rasmiy tuzilmalar tomonidan axborotni taqdim etishni rad etish, uni asossiz ravishda kechiktirish yoki to‘liq bo‘lmagan shaklda taqdim etish kabi holatlar uchrab turadi.

Bunday vaziyatlar jurnalistni muqobil axborot manbalariga murojaat qilishga, mavjud ma‘lumotlarni ko‘p bosqichli tekshiruvdan o‘tkazishga hamda dalillar bazasini mustahkamlashga undaydi. Natijada surishtiruv jarayoni murakkablashib, jurnalistdan nafaqat kasbiy mahorat, balki huquqiy bilim va strategik yondashuvni ham talab etadi.

Mazkur holat shuni ko‘rsatadiki, jurnalistning huquqiy maqomi normativ hujjatlarda belgilanishi bilan emas, balki ushbu huquqiy normalarning amaliyotda qanday ishlashi orqali namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, surishtiruv jarayonida jurnalist o‘z huquqlarini nafaqat bilishi, balki ularni amaliyotda samarali qo‘llay olishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, yuqoridagi fikrlarimizni “Kun.uz” nashrida e‘lon qilingan ““Xalq g‘azabini qo‘zg‘atishni bas qiling!” – Uchtepa hokimi matbuot kotibi gaz muammosini ko‘targan jurnalistni koyib berdi”¹⁹ sarlavhali material misolida tahlil qilamiz. Mahoratli jurnalist Aziza Qurbonova Facebook sahifasiga o‘zi istiqomat qilayotgan mahallada gaz bosimi nihoyatda pasayib ketganligi haqida shunday post joylaydi:

“Salom, mening nomim – gaz. Lekin bunga shubham bor. Kuchim faqat miltillashga yetadi. 20 minutdan beri choy ham qaynatolmayman.

Egalarim o‘tmishim — o‘choqqa qaytishgan.

Ha, shunaqa. Manzilim: Uchtepa tumani Cho‘ponota mahallasi”, deyiladi postda.

Post ostiga Uchtepa tumani hokimligi hamda “Hududgazta‘minot” AJ Uchtepa tumani bo‘limini teg qilgan. Jurnalist muammoni ochiq ko‘tarib, tegishli tashkilotlarni belgilagan holda ularning rasmiy munosabatini kutgan.

Natijada, jarayonning dastlabki bosqichida mas‘ullar tomonidan holatga izoh berish o‘rniga, tanqidiy munosabat bildirilgan hamda jurnalistning chiqishi noto‘g‘ri talqin qilingan, ko‘tarilgan muammo ikkinchi darajaga tushib qolgan.

«Uchtepa tumani hokimligi» nomi bilan ro‘yxatdan o‘tgan profildan quyidagicha munosabat bildiriladi:

¹⁹<https://kun.uz/kr/news/2022/11/15/xalq-gazabini-qozgatishni-bas-qiling-uchtepa-hokimi-matbuot-kotibi-gaz-muammosini-kotargan-jurnalistni-koyib-berdi>. (murojaat sanasi: 24.04.2026)

“Bo‘ldi-da, Azizaxon, nima qilasiz olovga yog‘ sepib? Hamma narsa nazoratga olingan. Qani, bir kun kelib Uchtepada ishlang-chi, ko‘raman. Bas qiling xalq g‘azabini qo‘zg‘atishni.

Siz nima qilib berdingiz Uchtepaga? Tepada o‘tirib, aqllilik qilish nechog‘lik oson-a? Men ham siz o‘tirgan joyda anchagina o‘tirganman, lekin bunaqangi kattalik qilib, birovning g‘azabini keltirmaganman, Allohga shukur”.

Muloqot murojaat darajasidan shaxsiy polemikaga ko‘chadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot almashinuvi uziladi. Jurnalist mas‘ulga gaz ta‘minoti masalasiga doir qo‘shimcha savollar yo‘llaydi. Biroq rasmiy vakil o‘zini ochiq identifikatsiya qilmaydi va jurnalist murojaatiga javob bermaydi. Keyinchalik jamoatchilik muhokamasi kuchaygach, masala yuzasidan rasmiy izoh berilib, gaz ta‘minotidagi muammolar mavjudligi tan olinadi.

Ushbu keys jurnalistning axborot olish huquqi normativ jihatdan kafolatlangan bo‘lsa-da, uning amaliyotda samarali ishlamasligini yaqqol namoyon etadi. Murojaatlarga mutassaddilarning izoh bermasligi, muammolarga munosabat bildirmasligi, axborot berishdan bosh tortishi kabi holatlar ijro mexanizmlarning yetarli darajada ishlamayotganini ko‘rsatadi. (Axborot olish huquqining buzilishi: Kun.uz misolida)

Mazkur holatni huquqiy jihatdan tahlil qilganda, unda bir qator normativ talablarga nomuvofiqlik kuzatiladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonunining 5-moddasida ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyat yuritishi hamda ularning faoliyatiga aralashish qonunan ta‘qiqlanishi belgilangan. “Jurnalistlik faoliyatni himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 8- moddasida esa “Jurnalist jurnalistlik faoliyatini amalga oshirish chog‘ida shaxs daxlsizligi kafolatlanadi. Tanqidiy materiallar e‘lon qilganligi uchun jurnalistni ta‘qib qilishga yo‘l qo‘yilmaydi” deyiladi.

Yana bir misol, “Daryo.uz” internet nashrida e‘lon qilingan “Jurnalistga Samarqandda o‘ldirish bilan tahdid qilindi...”²⁰ sarlavhali materialda jurnalistning bir qator huquqlari buzilganini ko‘rish mumkin. “Kun.uz” muxbiri jurnalistik surishtiruv doirasida mehnat migrantlariga aviachiptalar qimmat narxda sotilayotgani haqidagi ma‘lumotlarni aniqlashtirish maqsadida “Panorama bolalar uyi” MChJ tashkilotga murojaat qilgan.

Biroq surishtiruv jarayonida firma mas‘ullari jurnalistga nisbatan yomon munosabatda bo‘lgan, nomunosib so‘zlar bilan haqorat qilgan. Firma vakillari jurnalist savollariga javob berishdan bosh tortib, ijodiy jamoadan texnik vositalarni o‘chirishini talab etgan. Vaziyat keskin tus olib, jurnalistga nisbatan o‘ldirish bilan tahdid qilingan, kuch ishlatilgan. Natijada jurnalist voqea joyini tark etishga majbur bo‘lgan va keyinchalik huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilgan.

²⁰<https://daryo.uz/2021/03/20/jurnalistga-samarqandda-oldirish-bilan-tahdid-qilindi-viloyat-iib-holat-boyicha-tergovga-qadar-tekshiruv-boshladi/> (murojaat sanasi: 10.02.2026)

Mazkur holat shuni ko‘rsatadiki, jurnalist tomonidan muammo qonuniy asosda o‘rganilayotgan bo‘lsa-da, amaliyotda uning faoliyati turli to‘siqlarga uchrashi mumkin. Amaldagi qonunchilik nuqtai nazaridan mazkur vaziyatni tahlil qilamiz.

Birinchiidan, jurnalistning axborot olish huquqi buzilgan.

Jurnalist axborotni izlash, olish va tarqatish maqsadida davlat tashkilotlariga, jamoat birlashmalariga, korxonaga, muassasalarga, murojaat qilishi, surishtiruv o‘tkazishi uning qonuniy huquqi hisoblanadi. Mazkur huquq O‘zbekiston Respublikasining “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasida, “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 9-moddasida kafolatlangan bo‘lib, jurnalistning turli manbalardan axborot olish, uni tahlil qilish, tarqatish va jurnalistik surishtiruv o‘tkazish borasidagi vakolatlari aniq belgilab qo‘yilgan.

Ikkinchiidan, jurnalistning shaxsiy hayot daxlsizligi, kasbiy faoliyatini erkin amalga oshirish kafolatlariga putur yetkazilgan.

Jurnalist o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirish jarayonida shaxsiy daxlsizlik kafolatidan foydalanadi hamda unga nisbatan har qanday tahdid, bosim yoki ta‘qib qilish qonun bilan ta‘qiqlanadi. Jurnalistga nisbatan o‘ldirish bilan tahdid qilinishi va kuch ishlatishga urinish holatlari uning hayoti va xavfsizligiga bevosita xavf tug‘diradi. Mazkur huquq O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida hamda “Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 8, 10 va 14-moddalarida mustahkamlangan. Ushbu normalarga ko‘ra, jurnalistning shaxsiy daxlsizligi kafolatlanadi, uning kasbiy faoliyati yuzasidan ta‘qib etilishi, sha‘ni va qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek tanqidiy materiallar e‘lon qilgani uchun tahdid yoki bosim o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Yuqoridagi talablarga zid ravishda sodir etilgan shaxsiy hayotga aralashuv, haqorat qilish kabi harakatlar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 140 (haqorat qilish) va 141 (shaxsiy hayot daxlsizligini buzish) - moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarlik hisoblanib, jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos sanaladi.

Uchinchiidan, jurnalistning texnik vositalardan foydalanish huquqi cheklangan.

Jurnalist axborotni to‘plash, qayd etish va uni tahlil qilish jarayonida zarur texnik vositalardan erkin foydalanish huquqiga ega. Jurnalistdan texnik vositalarni o‘chirishni talab qilish uning axborotni yig‘ish jarayoniga, kasbiy faoliyatiga to‘sqinlik qilish sifatida baholanadi. Mazkur huquq O‘zbekiston Respublikasining “Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuning 5, 14-moddalarida belgilangan bo‘lib, unda jurnalistning axborotni turli usullar, jumladan texnik vositalar yordamida to‘plash va qayd etish huquqi kafolatlanadi. Jurnalistning zarur texnika vositalarini cheklash, materiallarini g‘ayriqonuniy ravishda olib qo‘yish qonunchilikka muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Bu kabi holatlar amaliyotda keng kuzatiladi. Ayniqsa, jamiyatning og‘riqli nuqtalari bilan bog‘liq mavzularda surishtiruv olib boradigan aksariyat jurnalistlarning bir qator huquqlari buziladi. Birgina misol, bolalar bog‘chasi faoliyatiga oid surishtiruv materiallarini o‘rganib chiqishimiz natijasida, 2024–2025-yillar kesimida mahalliy internet nashrlarida e‘lon qilingan o‘nlab tekshiruvlarda jurnalist savollariga javob berishdan bosh tortish, zarur texnik vositalardan foydalanishga qarshilik ko‘rsatish, tahdid qilish, bosim o‘tkazish, kasbiy faoliyatiga to‘sqinlik qilish kabi holatlar yaqqol kuzatiladi.

Filologiya fanlari doktori, professor N.Toshpo‘latovanning ta’kidlashicha, surishtiruv olib borayotgan jurnalistlar ishonchli va zarur axborotni olish jarayonida bir qator to‘siqlarga duch keladilar. Jumladan:

- axborotga erkin kirishdagi cheklovlar;
- zamonaviy usul va texnologiyalarni amaliyotda qo‘llashda qiynalish;
- tadqiqot mazmunini to‘liq anglay olmaslik;
- tashqi yoki ichki bosim ostida qolish;
- vaqt cheklovlari;
- huquqiy bilim va savodxonlikning yetarli darajada emasligi kabilar²¹.

Mazkur muammolarni tahlil qilish, ularning nafaqat amaliy, balki nazariy asoslarini ham aniqlash zaruratini yuzaga keltiradi. Ushbu holatlar jurnalist faoliyatiga to‘sqinlik qiluvchi omillar tizimli xarakterga ega ekanini anglatadi. Xususan, Kunert, Bruggemann, Frech, Lilienthal va Loosen tomonidan olib borilgan ““You suck it up and you deal with it”: Blind spots in investigative reporting and how to overcome them” (“Bunga bardosh berishga to‘g‘ri keladi”: surishtiruv jurnalistikasidagi yashirin jihatlar va ularni qanday bartaraf etish mumkin) nomli tadqiqotda surishtiruv jurnalistikasida mavjud “yashirin jihatlar” (blind spots) global miqyosda o‘rganilgan²². Tadqiqot 2019-yilda o‘tkazilgan Global Investigative Journalism Conference (Global surishtiruv jurnalistikasi konferensiyasi) doirasida 60 dan ortiq davlatdan 90 nafar jurnalist bilan o‘tkazilgan, chuqurlashtirilgan intervyular asosida olib borilgan. Mualliflar surishtiruv jarayonida yuzaga keluvchi yashirin nuqtalarni “ta’sirlar iyerarxiyasi modeli” (Hierarchy of Influences Model) orqali tahlil qilib, jurnalistik faoliyatga ta’sir etuvchi omillarni to‘rt darajaga - individual, tashkiliy, media tizimi va keng ijtimoiy muhit darajalariga ajratadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, aynan yuqori darajadagi ijtimoiy-siyosiy bosimlar, axborotga kirishdagi cheklovlar jurnalistlarning muayyan mavzularni yoritmasligiga olib keladi. Bu holat ko‘pincha o‘z-o‘zini senzura qilish bilan yakunlanadi.

²¹ Toshpo‘latova N. Tahliliy jurnalistika. O‘quv qo‘llanma. – T.: Bayoz, 2019. – B.183.

²²https://www.researchgate.net/publication/366387720>You_suck_it_up_and_you_deal_with_it_Blind_spots_in_investigative_reporting_and_how_to_overcome_them

Shu bilan birga, Löfgren Nilsson va Örnebring tomonidan olib borilgan “Journalism Under Threat” (Tahdid ostidagi jurnalistika) nomli tadqiqot jurnalistlarga nisbatan bosim va tahdidlar fenomenini rivojlangan demokratik davlat — Shvetsiya misolida empirik o‘rganadi²³. Mazkur tadqiqot keng qamrovli so‘rovnoma asosida o‘tkazilgan bo‘lib, unda jurnalistlarning sezilarli qismi kasbiy faoliyati davomida turli shakldagi tahdid, bosim va haqoratli munosabatlarga duch kelgani aniqlangan. Mualliflar bu holatni “tashqi bosim omillari” sifatida baholab, uning nafaqat kasbiy faoliyatga, balki jurnalistning psixologik holatiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatishini ta‘kidlaydi. Eng muhim xulosa shundaki, bunday bosimlar jurnalistlarda qo‘rquv, ehtiyotkorlik va o‘z-o‘zini cheklash tendensiyasini kuchaytirib, natijada jurnalistik mustaqillik va axborot erkinligiga bilvosita ta‘sir qiladi.

Nazariy va amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jurnalistning huquqiy maqomi normativ-huquqiy hujjatlarda aniq belgilangan bo‘lsa-da, uning amaliyotda to‘liq ro‘yobga chiqishi doimo ta‘minlanavermaydi. Amaliy faoliyatda axborot olishga to‘sqinlik qilish, texnik vositalardan foydalanishni cheklash, tahdid va bosim o‘tkazish kabi holatlar jurnalist huquqlarining buzilishiga olib kelmoqda. Bu esa huquqiy kafolatlar va real amaliyot o‘rtasida muayyan tafovut mavjudligini ko‘rsatadi. Natijada jurnalistning huquqiy maqomi real amaliyotda samarali ishlash mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, jurnalistik surishtiruv jarayonida jurnalist huquqlarining buzilishi asosan axborot olishga to‘sqinlik qilish, kasbiy faoliyatga aralashish, tahdid va bosim o‘tkazish hamda texnik vositalardan foydalanishni cheklash shakllarida namoyon bo‘ladi. Tahlil qilingan materiallar jurnalist faoliyatini himoya qilishga qaratilgan huquqiy normalar mavjud bo‘lishiga qaramasdan, ularning amaliy ijrosida muayyan muammolar saqlanib qolayotganini ko‘rsatdi.

Xususan, ayrim mansabdor shaxslar va tashkilotlar tomonidan jurnalistlarning qonuniy so‘rovlariga javob bermaslik, surishtiruv jarayoniga to‘sqinlik qilish hamda bosim o‘tkazish holatlari jurnalistlarning kasbiy faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bu esa huquqiy kafolatlar va ularning amaliyotdagi tatbiqi o‘rtasida tafovut mavjudligini ko‘rsatadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida:

- jurnalistlarning axborot olish huquqini ta‘minlash mexanizmlarini kuchaytirish;
- jurnalist faoliyatiga noqonuniy aralashganlik uchun javobgarlik choralarini takomillashtirish;
- davlat organlari va tashkilotlarning axborot ochiqligini oshirish;
- surishtiruv jurnalistlari uchun huquqiy va xavfsizlik bo‘yicha maxsus treninglarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

²³ <https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/17512786.2016.1164614>

Mazkur chora-tadbirlar jurnalistlarning huquqiy himoyasini mustahkamlash, so‘z va axborot erkinligini ta’minlash hamda surishtiruv jurnalistikasi rivojiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qurbon N., Bahriyev K. Media huquqi. Darslik. – T.: Grand Inter Media”, 2022. – B.146
2. <https://www.lex.uz/uz/docs/-53543#-1109698>
3. <https://lex.uz/docs/-9540>
4. <https://kun.uz/kr/news/2022/11/15/xalq-gazabini-qozgatishni-bas-qiling-uchtepa-hokimi-matbuot-kotibi-gaz-muammosini-kotargan-jurnalistni-koyib-berdi>. (murojaat sanasi: 24.04.2026)
5. <https://daryo.uz/2021/03/20/jurnalistga-samarqandda-oldirish-bilan-tahdid-qilindi-viloyat-iib-holat-boyicha-tergovga-qadar-tekshiruv-boshladi/> (murojaat sanasi: 10.02.2026)
6. Toshpo‘latova N. Tahliliy jurnalistika. O‘quv qo‘llanma. – T.: Bayoz, 2019. – B.183.
7. https://www.researchgate.net/publication/366387720_You_suck_it_up_and_you_deal_with_it_Blind_spots_in_investigative_reporting_and_how_to_overcome_them
8. <https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/17512786.2016.1164614>